

BO‘LAJAK MUTAXASSISLARNI MILLIY QADRIYATLARDAN FOYDALANGAN HOLDA KASBIY FAOLIYATGA TAYYORLASH

Mustafoyeva Gulorom Abdujalil Qizi

Jizzax politexnika instituti “Professional ta’lim”, kafedraasi assestenti

Annotatsiya. Jamiyatimiz rivojining hozirgi bosqichi, unda yuz berayotgan ijtimoiy-iqtisodiy o‘zgarishlar, fan-texnikaning jadal taraqqiyoti, oliy ma’lumotli mutaxassislarni tayyorlashga yangicha talablar qo‘ymoqda.

Kalit so‘zlar. Psixologiyada faoliyat, fan-texnika, transport, morfologik faoliyat, bilish faoliyati, konsepsiya, mutaxassisning irodasi.

TRAINING FUTURE SPECIALISTS FOR PROFESSIONAL ACTIVITY USING NATIONAL VALUES

Mustafayeva Gulorom Abdujalil Qizi

**Assistant of the Department of "Professional Education" of the Jizzakh
Polytechnic Institute**

Annotation: The current stage of the development of our society, the socio-economic changes taking place in it, the rapid development of science and technology, put new demands on the training of highly educated specialists.

Key words. Activity in psychology, science and technology, transport, morphological activity, cognitive activity, concept, specialist's will.

Mamlakatimizda professional ta’lim muassasalarida ham kasb-hunarlar o‘rganish uchun shart-sharoitlar yaratilishi munosabati bilan mazkur jarayonni samarali tashkil etish uchun unda yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan muammolar yechimini topishni taqozo etmoqda.

Ushbu maqsadda ro‘y berishi mumkin bo‘lgan muammolarni shartli ravishda quyidagi bosqichlarga ajratish mumkin:

1-bosqich. Umumiy o‘rta ta’lim maktablari 9-sinflar bitiruvchilarini boshlang‘ich professional ta’lim muassasalari kasbiy ta’lim yo‘nalishlariga yo‘llash va qabul qilinishigacha bo‘lgan davrda uchraydigan muammolar.

2-bosqich. Professional ta'lim muassasalari va ular negizida tashkil etiladigan 10-11-sinf o'quvchilariga kasbiy ta'lim berishga ixtisoslashgan o'rta professional o'quv muassasasida mutaxassislarni tayyorlashda ishlab chiqarish tadbirlari, o'quvchilar ijodkorlik uyushmalari, turli amaliyotlarini tashkil etish bilan bog'liq muammolar ham mavjud.

3-bosqich. Yoshlarning professional ta'lim muassasalarini bitirgach, oliy ta'limga kirishlari, ishga joylashishlari va kasbiy mahoratlarini takomillashtirishlari, ya'ni, ularni qayta tayyorlash va kasbiy mahoratlarini, malakalarini oshirish bo'yicha muammolar. Respublikadagi 10 mingdan ziyod umumta'lim maktablarining 9-10-11-sinflarini bitirgan yoshlarning asosiy qismi kasb-hunar va boshqa kasbiy ta'lim muassasalarining 1-kurslariga hujjat topshirishlarida aynan pedagogik yo'nalishdagi o'quv muassasasini ong'li ravishda tanlashlari uchun yetarli darajada targ'ibot-tashviqot ishlari olib borilishi, ularning ong'li ravishda xilma-xil kasb-hunarlarni tanlashlarining asosli, mustaqil, turg'un omillarini aniqlash, qiziqishlari va moyilliklarining sabablarini chuqur va har taraflama o'rganish lozimligi tabiiy ehtiyojga aylanib bormoqda.

Professional ta'lim muassasalari va kasb-hunar maktablarida yuzaga kelayotgan muammolar jamiyat taraqqiyotining rivojlanishi bilan chambarchas bog'liqdir. Shuning uchun ham o'quvchi yoshlarning professional ta'lim muassasalarining u yoki bu mutaxassisliklariga hujjat topshirishlari (yoki topshirmasligi)ning asosiy sabablarini qidirib topish, o'rganish va umumlashtirish, xulosalash lozim bo'lmoqda.

Kuzatishlarning ko'rsatishicha, professional ta'lim muassasalariga qabul davrida o'quvchilarning nomutanosib taqsimlangan holda hujjat topshirishlari sabablaridan biri kasb-hunar ta'lim muassasasi bilan ota-onalar, hududdagi umumta'lim maktablari, mahalla-jamoatchilik va ishlab chiqarish (davlat va xususiy) korxonalari jamoalari o'rtasida mustahkam, tizimli doimiy ravishdagi aloqalarning rejali ravishda muntazam o'rnatilmaganligidadir. Tadqiqotchi Ro'ziev I.E. "Kasb-hunar kollejlari kichik mutaxassislar tayyorlash muammolari ustida

to'xtalib, o'qitishda ichki me'yorlashtirilgan tizimni emas, jahonning standartlariga mosligining muhimligini ta'kidlaydi. U o'quvchilarning noyob bo'lmagan mutaxassisliklarga hujjatlarni kam topshirilishining oldini olish muammociga quyidagi chora-tadbirlarni belgilashni taklif etadi:

- mahalliy hududda joylashgan asosiy ishlab chiqarish korxonalarining istiqboliga tayanib, mutaxassislar tayyorlashni rejalashtirish;
- o'quvchilarning, kasbiy qiziqishi, qobiliyati, dunyoqarashi, ishlab chiqarishning ehtiyojini hisobga olgan holda maktabdan bevosita kasb-hunar kollejlariga yo'llash;
- ta'lim muassasalarida mavjud ixtisosliklar bo'yicha to'liq ma'lumotlar bazasini yaratish».

Pedagogika yo'nalishidagi texnikumlarida mutaxassislarni tayyorlash jarayonida ilg'or ta'lim, axborot va ishlab chiqarish texnologiyalarining samarali namunalarini qo'llash ham muhim muammolardan hisoblanadi. Professional ta'lim muassasalarida o'rganiladigan barcha fanlarni, jumladan, umumkasbiy va maxsus fanlarni milliy qadriyatlardan foydalangan holda o'qitishda ilg'or texnologiyalarga, xususan, kompyuter dasturlaridan foydalanishga to'liq o'tilgan emas. Ma'lumki, ishlab chiqarishning barcha sohalariga yangi texnikalar va ilg'or texnologiyalar kirib keldi. Masalan, gazlamalarga ishlov berish, tikuvchilik, to'quvchilikda Rossiya bilan bir qatorda Kanada, Yaponiya, Koreya, Germaniyadan keltirilgan turli jihozlar, qurilmalar va texnologiyalar amalda qo'llanilmoqda. Ammo, ko'pgina texnikumlarga berilgan bunday jihozlar ba'zi xollarda mutaxassislar yetishmasligi sababli yetarlicha samara beradigan darajada ishlatilmasdan, ko'proq ko'rgazmali qurol sifatida foydalanilmoqda.

“Tarbiyaviy tadbirlar turli xil moddiy va ma'naviy ehtiyojlarga javob beruvchi, tarbiyaviy maqsadlarning yagona majmuasiga bo'ysundirilgan, bir-biri bilan o'zaro hamkorlik qiluvchi, o'zida bir butun ta'limni ko'zda tutgan tarbiyaviy ta'sir majmuidir”. Shu sababli ta'lim muassasalari tarbiyaviy jarayonni tashkil qilish va muvaffaqiyatli davom ettirish uchun zarur bo'lgan tarbiyaviy ishlar

uslublari, bilimlar, malaka va mahoratlar tizimi, zamonaviy pedagogik texnologiyalar va ularni tarbiyaviy ishlar amaliyotida qo'llash masalalari pedagogik jamoalariing eng muhim muammosi bo'lib qolmoqda. Ta'lim muassasalarida o'quvchilar bilan olib boriladigan tarbiyaviy ishlarning samaradorligini oshirish tarbiyaviy ishlar texnologiyasini to'g'ri tashkil kilish va qo'llashga bog'liq.

Bu esa, o'z navbatida ta'lim muassasalari uchun tarbiyaviy ishlarni amalga oshirish uslubiyoti zamonaviy pedagogik texnologiyalar ishlanmalari asosida yaratishni talab etadi. Fikrimizcha, ta'lim muassasalarining tarbiyaviy ishlar texnologiyasi ijodiy faollik, mustaqil fikrlash va mohirona harakatlarga yo'naltirilgan bo'lishi va tarbiyachi hamda o'quvchilar tomonidan minimal kuch sarflagan holda tarbiyaviy ishlar bo'yicha qo'yilgan maqsadlarni egallashda eng faol shakl, usul va uslublardan foydalanish, tarbiyaviy jarayonni muvaffaqiyatli tashkil etuvchilarning doimiy va majmuaviy faoliyatining asosiy qismidan iborat bo'lishi kerak". Demak, o'qituvchi-pedagoglarning faoliyatida ilmiy-ijodiy ishlarni ma'naviy, ma'rifiy, madaniy tadbirlarni o'tkazishlarida qatnashishlariga yanada ko'proq erishish lozim, chunki, bu hol bir tomondan ularning kasbiy mahoratlarining takomillashuviga olib kelsa, ikkinchi tomondan ularning ma'naviy dunyoqarashining rivojlanishiga olib keladi, uchinchi esa, ma'naviy boyliklarini, milliy qadriyatlarni tiklash va rivojlantirishga olib keladi. Bu haqda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti o'z so'zida: "Mamlakatimizda milliy hunarmandchilik, xalq badiiy va amaliy san'atini rivojlantirish, bu orqali xalqimizning boy madaniy merosi va tarixiy an'analarini to'liq saqlab qolish, band bo'lmagan aholini, ayniqsa yoshlar, ayollar va kam ta'minlangan oilalarni hunarmandchilikka keng jalb etish orqali ularning ish bilan bandligini ta'minlash maqsadida respublikamiz hududlarida faoliyat yurituvchi hunarmandlar mahsulotlarini chet elda namoyish etish va sotishda ham har tomonlama amaliy yordam ko'rsatilishini ta'kidladi.

Ushbu fikrlardan kelib chiqib bo'lajak mutaxassislarni milliy qadriyatlardan foydalangan holda kasbiy faoliyatga tayyorlashda quyidagi vazifalarni qo'yadi:

birinchidan, professional ta'lim muassasalarida o'qiyotgan o'quvchilarning ma'naviy bilim doirasini aniqlash; ikkinchidan, o'quvchilarni birinchi bosqichdanoq ma'naviy bilim doirasini yuksaltirish mexanizmini ishlab chiqish; uchinchidan, o'quvchilarning milliy-ma'naviy qadriyatlar to'g'risidagi bilimlar hajmi va qamrovini aniqlash; to'rtinchidan, kasbiy ta'lim mazmuniga milliy-ma'naviy qadriyatlar xalq hunarmandchiligi turlarini integratsiyalash misolida ma'lumotlarni singdirish metodikasini ishlab chiqish; beshinchidan, o'quvchilarning milliy-ma'naviy qadriyatlar to'g'risidagi shakllangan bilimlarini aniqlash mezonini ishlab chiqish; oltinchidan, o'quvchilarning milliy-ma'naviy qadriyatlar to'g'risidagi bilimlarining amaliy, kasbiy ko'nikmaga aylanganligini aniqlash; yettinchidan, o'quvchilarning egallagan milliy-ma'naviy qadriyatlarga oid ko'nikmalarini kasbiy ko'nikmalar va malakalar bilan integratsiyalay olishni amalga oshirish; sakkizinchidan, egallangan ma'naviy va kasbiy ko'nikmalarni o'quvchilar ongi va qalbiga singdirishning innovatsion uslublari va texnologiyalarini yaratish.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Jiyanqulova R. Pedagog kadrlarni kasbiy faoliyatga tayyorlash.// Ta'lim tizimida ijtimoiygumanitar fanlar. №2. -T., 2014. - B-59.
2. Jiyanqulova R. Bo'lajak mutaxassislarni kasbiy faoliyatga tayyorlashda milliy qadriyatlardan foydalanish. //Uzluksiz ta'lim. №4. -T., 2014. - B-115.
3. Atakhanova, N. E., Almuradova, D. M., Ziyayev Sh, V., Хамидов, X., & Юсупов, А. (2023). Значения андрогенных рецепторов для прогнозирования выживаемости больных трижды негативным раком молочной железы. International Bulletin of Medical Sciences and Clinical Research, 3(6), 5-8.
4. Almuradova, D. M., Mukumova, D. I., & Turaeva, X. K. (2022). Karlibaev AO Modern endocrine therapy in locally advanced estrogen or progesterone receptor-positive breast cancer. Образования и наука в XXI веке, 24(2), 773-780.

5.Studying The Quantity And Composition Of Traffic In Public Transport
Directions//MU Boliquil o'g'li //Eurasian Research Bulletin 18, // 114-132